



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim maktab (maktab-internat)larini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlariga bir hafta muddatda:

umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlarini malaka tavsiflari bilan to‘liq tanishtirilishini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari uchun ilova bilan tasdiqlanayotgan malaka tavsiflaridan ish jarayonida foydalanish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha seminarlar tashkil etish va tushuntirish ishlarini olib borish;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) direktorlari tomonidan xodimlarni ishga qabul qilish va ularni boshqa lavozimga o‘tkazishda mazkur malaka tavsiflariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;

malaka tavsiflariga mos kelmagan xodimlar bilan amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish choralarini ko‘rilishini nazorat qilish vazifalar yuklatilsin.

3. Axborot xizmati (D.Sobirova) tasdiqlangan malaka tavsiflarini vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) ushbu buyruqni Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarga yetkazsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash haqida" 2025-yil 16-maydagi 159-son buyrug'ining 12-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazirning
birinchi o'rinbosari**



Sh. Karimov

Toshkent sh.,
2026-yil 13 - yanvar,
9-son